IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

OZIQ-OVQAT SANOATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Boliyeva Shoiraxon Shuxratjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti
Iqtisodiyot yo'nalishi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23659319

Annotatsiya: Ushbu tezisda oziq-ovqat sanoatining tarkibiy transformatsiyasi orqali milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat jismoniy mavjudlik va iqtisodiy kirish imkoniyati, balki oziq-ovqatning sifati, xavfsizligi va barqarorligi kontekstida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mahalliy ishlab chiqarish hajmini oshirish, qo'shilgan qiymat zanjirini takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda import o'rnini bosish strategiyalarining o'zaro bog'liqligi asoslanadi. Tezisda oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish, raqamli va innovatsion texnologiyalarni (masalan, "aqlli" qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, logistikada blokcheyn) joriy etish orqali import qaramligini kamaytirish va eksport salohiyatini oshirish yo'llari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, sanoat integratsiyasi, import o'rnini bosish, qo'shilgan qiymat, innovatsion texnologiyalar, barqaror rivojlanish.

Kirish. Oziq-ovqat xavfsizligi bugungi kunda har bir davlatning milliy xavfsizlik tizimining ajralmas qismiga aylangan. Bozorlarning globallashuvi, dunyo aholisining tez o'sishi, iqlim o'zgarishi va resurslarning cheklanganligi oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda va uni ta'minlash mexanizmlarini murakkablashtirmoqda[1]. Oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat mahsulotning jismoniy mavjudligi, balki aholining sifatli, xavfsiz va arzon oziq-ovqatga iqtisodiy kirish imkoniyati bilan o'lchanadi.

Iqtisodiyotda qulay tadbirkorlik muhitini shakllantirish uzoq muddatli jarayon bo'lib, iqtisodiy siyosatning muhim strategik yo'nalishlaridan biridir. Bunday muhit hukumatning bandlik va soliq siyosatlarida barqarorlikni ta'minlash bilan birga, tadbirkorlik sub'ektlarining kichik biznesdan o'rta va yirik biznesga o'sishi uchun sharoit yaratadi hamda iste'molchilar uchun tovar va xizmatlar xilma-xilligini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish va eksportni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017–2024 yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning mustahkam huquqiy asosini shakllantirdi.

Asosiy qism. Oziq-ovqat xavfsizligi deganda aholining faol va sog'lom hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga jismoniy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan doimiy kirish imkoniyati tushuniladi. FAO (BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi

[1] https://www.foodsafely.org/

tashkiloti) ta’rifiga ko‘ra, oziq-ovqat xavfsizligi to‘rt asosiy komponentdan iborat: mavjudlik, kirish imkoniyati, foydalanish va barqarorlik[2]. Oziq-ovqat xavfsizligi faqat mahsulot miqdori bilan emas, balki uning toksik va biologik xavf omillaridan (pestitsid qoldiqlari, og‘ir metallar, mikotoksinlar, patogen mikroorganizmlar) himoyalanganligi bilan ham belgilanadi. Shu sababli, qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizlik ko‘rsatkichlarini nazorat qilish, yangi tez va aniq tahlil usullarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, kelgusi 50 yil ichida jahon oziq-ovqat ishlab chiqarishi deyarli ikki baravar ko‘payishi kerak. Yer maydonlarini kengaytirish imkoniyati cheklanganligi sababli, bu o‘sishga faqat vertikal dehqonchilik, biotexnologiya, sun’iy intellekt asosidagi aniq dehqonchilik kabi innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali erishish mumkin.

Biroq, oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan asosiy materiallar (urug‘lar, o‘g‘itlar, pestitsidlar) asosan yirik transmilliy kompaniyalar nazorati ostida. Shu bilan birga, xalqaro savdoda oziq-ovqat xavfsizligi me’yorlari va standartlari (Codex Alimentarius, ISO 22000) tobora qat’iylashib bormoqda. Bu holat rivojlanayotgan mamlakatlarni texnologik qaramlik holatida saqlaydi va qo‘shimcha texnik to‘siqlarni keltirib chiqaradi.[3]

Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash – xomashyoni chuqur qayta ishlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, mahalliy ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash va mahsulotlar sifatini xalqaro standartlarga (ISO, HACCP) muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Bu jarayon aholini arzon, sifatli va xavfsiz oziq-ovqat bilan ta’minlash, importga qaramlikni kamaytirish hamda eksport salohiyatini oshirish uchun asosiy omil hisoblanadi[4].

Yo’nalish	Mazmuni
Xomashyoni qayta ishlash	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xomashyo holida emas, balki tayyor mahsulot sifatida qayta ishlash orqali saqlash muddatini uzaytirish va isrofgarchilikni kamaytirish
Innovatsion texnologiyalar	Zamonaviy, energiya tejamkor va avtomatlashtirilgan liniyalarni joriy etish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish
Sifat nazorati va standartlashtirish	Xalqaro oziq-ovqat xavfsizligi standartlarini (ISO 22000) joriy etish va laboratoriya nazoratini kuchaytirish
Import o‘rnini bosish va eksport	Mahalliy ishlab chiqarishni ko‘paytirish orqali tashqi bozorga bog‘liqlikni kamaytirish va eksportbop mahsulotlar turlarini kengaytirish
Logistika va infratuzilma	Sovutkichli omborxonalar, logistika markazlari va “daladan dasturxongacha” tamoyili asosida samarali ta’minot zanjirini yaratish

1-rasm. Oziq-ovqat sanoati orqali xavfsizlikni ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari[5]

[2]https://www.fao.org/4/i3434e/i3434e02.pdf#:~:text=Source:%20FAO.%20Based%20on%20this%20definition%2C%20four,and%20stability%20(vulnerability%20and%20shocks)%20over%20time.
[3] https://www.kalite.com/uz/eurolab/iso-22000-gida-guvenligi-yonetim-sistemi
[4] https://infocom.uz/magazine-article-detail/552
[5] Muallif ishlanmasi

O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning amaliy tahlilini quyidagi ko’rsatkichlar orqali mahalliy va xalqaro yutuqlarini va islohotlarini ko’rishimiz mumkin:

Ko’rsatkich	**Ko’rsatkich**	**O’zgarish davri**
Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi	6,1 mlrd AQSH dollaridan ortiq	2024 yil holatiga
Yillik eksport hajmi	510 mln AQSH dollaridan ortiq	2024 yil holatiga
Import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar (75 tur)	289,9 mln AQSH dollari	Oxirgi 3 yil
Import hajmining qisqarishi	7,4%	Oxirgi 3 yil
Oziq-ovqat sanoatining sanoatdagi ulushi	14% dan 16,6% gacha	So‘nggi yillar
Meva-sabzavot eksporti o‘sishi	2 barobar (577 mln dollar)	2017-2022
Oziq-ovqat va un mahsulotlari eksporti o‘sishi	21 barobar	2017-2022
Oziq-ovqat sanoati korxonalari soni	9,4 mingdan 22,5 mingtaga (2,4 barobar)	2016-2022

2- rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2017-2023 yillarda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar asosiy statistik ko‘rsatkichlari[6]

Ushbu ko‘rsatkichlar O‘zbekistonda oziq-ovqat sanoati va qishloq xo‘jaligida barqaror o‘sish kuzatilayotganini ko‘rsatadi. Ishlab chiqarish hajmining 6,1 mlrd dollardan oshishi va eksportning 510 mln dollarga yetishi sohaning iqtisodiy ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi. Import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar hajmining kengayishi va importning 7,4% ga qisqarishi ichki ishlab chiqarishning mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, meva-sabzavot hamda oziq-ovqat mahsulotlari eksportining o‘sishi eksport salohiyatining oshganini bildiradi. Korxonalar sonining 2,4 barobar ko‘payishi esa tarmoqda tadbirkorlik muhitining yaxshilanib, oziq-ovqat sanoatining iqtisodiyotdagi o‘rni kuchayib borayotganini tasdiqlaydi.

Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi (GFSI) 113 mamlakatda oziq-ovqatning arzonligi, mavjudligi, sifati va xavfsizligi, barqarorligi va moslashuvini o‘lchaydigan 68 ta ko‘rsatkichdan tuzilgan dinamik modeldir. O‘zbekistonning GFSI reytingidagi o‘zgarishi:

- 2017 yil: 54,7 ball, 88-o‘rin
- 2022 yil: 57,5 ball, 73-o‘rin[7]

Natijada bizning mamlakatimiz 12 pog‘ona yuqorilagan, 2019-2022 yillarda eng yuqori o‘sishga erishgan 10 mamlakat ichida 1-o‘rinni egallagan. Eng katta ijobiy o‘zgarishlar quyidagi ko‘rsatkichlarda kuzatilgan:

- shaharlarning oziq-ovqat oqimini o‘zlashtirish qobiliyati;
- oziq-ovqat xavfsizligi;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga import tariflar.

[6] https://lex.uz/ru/docs/-6802687?ONDATE=16.02.2024%2000#:~:text=O%CA%BBzbekiston%20Respublikasida%202024%20%E2%80%94%202028%2Dyillarda%20oziq%2Dovqat%20sanoatini,rivojlantirish%20bo%CA%BByicha%20chora%2Dtadbirlar%20dasturi%204%2Dilovaga%20muvofiq%20tasdiqlansin.

[7] https://kun.uz/36145294#!

Mazkur ko‘rsatkichlar O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini namoyon etadi. Xususan, mamlakatning Global Food Security Index (GFSI) reytingida yuqorilashi oziq-ovqat mahsulotlarining arzonligi, mavjudligi va sifati bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar yuz berayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, shaharlar oziq-ovqat oqimini samarali boshqarish imkoniyatining ortishi hamda import tariflari bo‘yicha olib borilgan siyosat ichki bozor barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda.

PF-36-son Farmon bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanishni ta’minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasi quyidagi 5 ta ustuvor yo‘nalishni belgilaydi:

1. Resurslardan samarali foydalanish – tabiiy, moliyaviy va moddiy resurslarni samarali iqtisodiy hamda ekologik boshqaruv asosida qo‘llash.
2. Strategik zaxiralarni shakllantirish – bozor tamoyillari asosida muhim qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari zaxiralarini yaratish.
3. Xavf-xatarlarni boshqarish – tabiiy va global tahdidlarni aniqlash, baholash hamda monitoring tizimlarini joriy etish.
4. Ijtimoiy himoyani kuchaytirish – ehtiyojmand aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish.
5. Jamoatchilik ishtiroki va targ‘ibot – oziq-ovqat xavfsizligi nazoratini kuchaytirish va sog‘lom ovqatlanishni keng targ‘ib qilish.

Mazkur ustuvor yo‘nalishlar oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda kompleks va tizimli yondashuvni shakllantiradi. Ular qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish bilan birga, butun ta’minot zanjirini samarali boshqarish, xavf-xatarlarni kamaytirish va aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, barqaror oziq-ovqat tizimini shakllantirish va aholining sifatli hamda xavfsiz mahsulotlarga teng kirish imkoniyatini kengaytirish ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, oziq-ovqat xavfsizligi bugungi kunda iqtisodiy va milliy xavfsizlikning muhim omiliga aylangan. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar — qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va eksportni oshirish hamda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni rivojlantirish — ijobiy natijalar bermoqda. Statistik ko‘rsatkichlar va xalqaro reytinglardagi o‘sish buni tasdiqlaydi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik innovatsiyalarni joriy etish va tarmoqni diversifikatsiya qilishda muhim rol o‘ynamoqda. Kelgusida resurslardan samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni keng qo‘llash va ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish orqali barqaror oziq-ovqat tizimini yanada rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-36-son Farmoni. Oziq-ovqat xavfsizligi va sog‘lom ovqatlanishni ta’minlashning 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategiyasi.
2. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). The State of Food Security and Nutrition in the World. Rome: FAO, 2022.
3. Economist Intelligence Unit. Global Food Security Index Report 2017–2022. London: EIU.

4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati statistik to‘plami. Toshkent, 2016–2024.
5. World Bank. Agriculture and Food Security Projects in Uzbekistan. Washington, D.C.: World Bank Group.
6. International Fund for Agricultural Development (IFAD). Uzbekistan Country Programme Reports. Rome, IFAD.
7. Japan International Cooperation Agency (JICA). Agricultural Development Projects in Uzbekistan. Tokyo: JICA.
8. European Union Delegation to Uzbekistan. Cooperation Programmes Reports. Brussels, EU.
9. Agence Française de Développement (AFD). Rural Development Projects in Central Asia. Paris: AFD.
10. Codex Alimentarius Commission. International Food Standards. Rome: FAO/WHO.
11. ISO. ISO 22000: Food Safety Management Systems — Requirements. Geneva: International Organization for Standardization.